

Антропонимларнинг тилшunoslikda tutgan o‘rni va lingvistik xususiyatlari

Mustafoeva Maqsad Askarovna
mustafaevamaksad@gmail.com

Tarix va Filologiya kafedrası ingliz tili o‘qituvchisi
Osiyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada onomastika, xususan, antroponimika masalalari yoritilgan bo‘lib, inson faoliyatida nomlash jarayonining ahamiyati va tilning bunda tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada E.Begmatovning tilning kommunikativ funksional imkoniyatlari haqidagi fikrlari asosida leksemalar orqali narsa va hodisalarni ifodalash jarayoni ko‘rib chiqiladi. Onomastikaning rivojlanish bosqichlari, qadimiy allomalardan tortib zamonaviy tadqiqotchilargacha bo‘lgan ilmiy yondashuvlar tahlil etiladi. Maqolada Agata Kristining “And Then There Were None” va Tohir Malikning “Shaytanat” asarlaridagi antroponimlarning etimologiyasi va semantik motivlari tahlil qilingan. Har ikki asardagi ismlarning lingvistik qatlamlari va ularning badiiy asarlardagi funksional vazifalari aniqlanadi. Tahlillar natijasida ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar ko‘rsatilib, ular orqali yozuvchilarning qahramon xarakterlarini ochib berish usullari o‘rganiladi. Maqola yakunida antroponimlar badiiy asarda stilistik vosita sifatida yozuvchining maqsadini ifodalashdagi rolini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: onomastika, antroponim, antroponimika, nomlar, tilshunoslik, atoqli ot.

Роль и лингвистические особенности антропонимов в лингвистике

Мустафаева Максад Аскарровна
mustafaevamaksad@gmail.com

Преподаватель кафедры истории и филологии
Азиатского Международного Университета

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы ономастики, в частности, антропонимики, а также анализируется значение процесса наименования в человеческой деятельности и роль языка в этом процессе. На основе взглядов Э.Бегматова о коммуникативных функциональных возможностях языка рассматривается процесс выражения понятий о предметах и явлениях через лексемы. Анализируются этапы развития ономастики – от древних ученых до современных исследователей. В статье проводится этимологический и семантический анализ антропонимов в произведениях Агаты Кристи «Десять негритят» и Тохира Малика «Шайтанат». Определяются лингвистические пласты имен в обоих произведениях и их функциональная роль в художественных текстах. В результате анализа выявляются сходства и различия антропонимов в английском и узбекском языках, а также изучаются методы раскрытия характера героев через имена. В заключение подчеркивается роль антропонимов как стилистического средства в художественном произведении для выражения авторской идеи.

Ключевые слова: ономастика, антропоним, антропонимика, имена, лингвистика, собственное имя.

The linguistic features and significance of anthroponyms in linguistics

Mustafaeva Maqsad Askarovna
mustafaevamaksad@gmail.com
Teacher

Department of History and Philology,
Asia International University

Annotation. This article highlights issues of onomastics, particularly anthroponymy, and analyzes the significance of the naming process in human activity and the role of language in this process. Based on E. Begmatov's views on the communicative and functional capabilities of language, the process of expressing concepts of objects and phenomena through lexemes is examined. The stages of onomastics development—from ancient scholars to modern researchers—are analyzed. The article provides an etymological and semantic analysis of anthroponyms in Agatha Christie's *And Then There Were None* and Tokhir Malik's *Shaytanat*. It identifies the linguistic layers of names in both works and their functional roles in literary texts. The analysis reveals similarities and differences between anthroponyms in English and Uzbek languages and explores methods of character portrayal through names. In conclusion, the role of anthroponyms as a stylistic device in literary works to express the author's intent is emphasized.

Keywords: onomastics, anthroponym, anthroponymy, names, linguistics, proper noun.

Kirish. Inson borliqda yashar ekan, bu borliq turli jism va predmetlardan iboratdir. Inson shu predmetlarni bir-biridan farqlash uchun unga nom qo'yadi. Nomlash bevosita inson faoliyati va tushunchalari bilan bog'liqdir. Bunda inson hayotida til muhim rol o'ynaydi. Mashhur olim E.Begmatovning fikricha, har qanday til o'zining ko'p qirrali kommunikativ funksion ehtiyoji va vazifasini ta'minlay oladigan darajada lisoniy vositalarga ega. Mana shunday vositalardan biri konkret va mavhum, real mavjud yoki xayoliy, diniy-falsafiy, madaniy va maishiy sohalarga oid narsa va hodisalar haqida tushunchalarni ifoda etuvchi leksema (so'z)lardir. Til narsa va hodisalar, ular haqida xilma-xil hamda murakkab tushunchalar, ularning qirralarini asosiy belgi xususiyatlariga tayangan holda umumlashtirib nomlaydi (Begmatov, 2013). Tilshunoslikning bu tarmog'i onomastika deb ataladi. Hozirgi kunda jahon tilshunosligida onomastika masalalarini o'rganishga qiziqish kun sayin ortib bormoqda va atoqli otlar tizimini zamonaviy tilshunoslik usullarida tadqiq qilish masalalariga ham e'tibor qaratilmoqda. Chunki nomlarini o'rganish, muayyan nomning paydo bo'lishi, tanlanish masalalari tilshunoslar, etnograflar va nomshunoslarning diqqatini jalb etib kelayotgan masalalardan biridir. Har bir nom o'z kelib chiqish tarixiga va o'z davriga ega. Ular o'sha xalq madaniyati va an'analarini o'zida jam etadi va o'sha millat dunyoqarashi, mentaliteti, ijtimoiy-moddiy, madaniy darajasi hamda ma'naviyati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O'zbek tilining izohli lug'atida nomshunoslikka quyidagicha ta'rif berilgan: Onomastika- yunoncha "onomastika" so'zidan olingan bo'lib, nom qo'yish san'ati degan ma'noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu atama ikki ma'noda qo'llaniladi:

1. Ma'lum bir til, xalq tarkibida qo'llanilgan barcha atoqli otlar yig'indisi.

2. Atoqli otlar, ularning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi (Madvaliyev, 2008).

Tildagi atoqli otlarning xususiyatlarini qadimgi davrlardan oq tadqiq etish boshlangan va hozirgi kunda ham turli soha olimlarining e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. Jahon onomastikasi ham, turkiy onomastika ham o'z taraqqiyoti davomida quyidagi uch bosqichlarni o'z ichiga oladi:

a) Noilmiy davr yoki onomastik materialni oddiy qayd qilish davri. Masalan, Platon, Aristotel, Demokritlarning atoqli otlar haqidagi fikrlari, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmuud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi allomalarning o'z asarlarida joy nomlarini, kishi ismlarini keltirishi;

b) Onomastikaning fan sifatida shakllanish davri. Bu fanning ildizlari Yevropa va rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Bu davrda T.Gobbs, J.Mill, J.Jozef, J.Lokk, G.Leybinits, A.X.Vostokov, A.I.Sobolevskiy, A.A.Shaxmatov, M.Fasmer, S.K.Kuznetsov, P.L.Maggakova, V. A.

Nikonov, Y. A. Karpenko A.K. Matveyev N.V. Podolskayalarning asarlarida onomastik materialni to'plash va tahlil qilish haqidagi dastlabki ma'lumotlar keltirilgan.

c) Sof onomastik yoki ilmiy davr. XX asrning 20- yillaridan hozirgi kungacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi.

Tahlillar va natijalar. Antroponimlar asar qahramonlarining obrazlarini yaratishda, vaqt va makonni shakllantirishda, uning asosiy motivlarini joylashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Chunki yozuvchi tomonidan to'g'ri tanlangan ism qahramonning hayotdagi ijtimoiy mavqeini, millatini, kasbini, fe'l-atvori ko'rsatadi, shuning uchun u yoki bu nomni qahramonga tanlashda ismning etimologiyasini ham hisobga olish kerak. Badiiy asarlardagi antroponimlar asarning turli personajlarining badiiy olamlarini ochib berishda, qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar va bog'lanishlarni tasvirlashga imkon beradi. Olim V.K. Chichagov ta'kidlaganidek, "haqiqiy shoir o'z qahramoniga bergan nomda, shoirning o'zi tomonidan ko'rinmas, ehtimol, zarur bo'lgan ehtiyoj bor" (Tohir Malik, 2006). Demak, badiiy asardagi shaxs nomlari ham o'zaro bog'liqlik mavjud bo'ladi. Nomlar badiiy matnning elementi bo'lib, asarda mavjud bo'lgan ko'p ma'nolarni yaqqol ko'rsatishga yordam beradi va muallifning bu xilma-xillikdan xabardor bo'lishi shart emas.

Agata Kristi ("And then there were none") va Tohir Malik ("Shaytanat" 1-kitob) asarlaridagi antroponimlarning kelib chiqish etimologiyasini tahlil qilishga harakat qildik.

Agata Kristining "And then there were none" asarida 46 ta antroponimni aniqladik. Shundan 26 tasi ayollarga xos, 20 tasi esa erkaklar ismi bilan bog'liqdir, 3 ta laqab aniqlandi (Christie, 1939). Ishimizni asarning bosh qahramonlarining ismlarini yoritishdan boshlaymiz (5).

Asardagi laqablar Mr Justice, U.N.K.N.O.W.N va Buzy Bee sanalib, Busy bee- juda band kishi uchun qo'llanadigan frazeologik birikma; Mr Justice Angliya va Uels sudlarida Oliy sud sudyalari lavozimni ko'rsatuvchi antroponimik birlik hisoblanadi. U.N.K.N.O.W.N – esa barcha personajlarga yuborilgan xatlarda aks etgan "A.N.O.N.I.M" ma'nosini beruvchi qotilning laqabidir. U bir necha ismlarning birikmasidir.

Ikkinchi asarimiz Tohir Malik qalamiga mansub "Shaytanat" roman pentalogiyasi hisoblanadi. Biz ilmiy ishimizda uning birinchi kitobidagi 32 ta antroponimlarni tahlil qildik va ma'nolarini ochib berishga harakat qildik (Begmatov, 2007). Bundan tashqari bir qator laqablar aniqlandi.

Asardagi laqablarning kelib chiqishi yozuvchi tomonidan personaj nomi va xarakteri bilan bog'langan. Masalan, Asadbek obrazi uchun qo'llangan o'qilon laqabini olsak, o'qilon o'qday uchib yuradi, odamga duch kelsa tovonidan teshib, miyasidan chiqadi.

Yoki Haydarning laqabi kesakpolvon. Haydar ikkita dehqonning iziga tushadi. Ularning belbog'ida pul bor deb o'ylaydi. Cho'ntak belbog'kesishda Haydardan o'tadigani yo'q edi. Xullas, belbog' kesildi. Panaroqqa o'tib qarasa, belbog'da sariq chaqa ham yo'q, besh-oltita kesak hafsala bilan terib qo'yilgan. Aslida dehqon shaharda "tahoratga kesak topiladimi, yo'qmi" deb har ehtimolga qarshi belbog'iga tugib olgan edi. O'shanda alamdanda bo'zarib turgan Haydarga qarab turib Asadbek rosa kuldi. Laqab ham o'shanda tug'ildi.

Chuvrindi atamasi ko'chma ma'noda eski, juldur kiyimli odam yoki qashshoq odamga nisbatan ishlatiladi. Asar qahramonining bunday atalishiga uning kiyinishi sabab bo'ladi (Tohir Malik, 2006).



Ikkala asarda antroponimlarning etimologik ma'nolarining ochganimizdan so'ng, ularning statik tahlilining o'tkazdik. 1-jadvalda ularning lug'aviy qatlam tahlilini ko'rishimiz mumkin.

Rasmdan ko'rishimiz mumkinki, "And then there were none" romanida inglizcha, "Shaytanat" (1-kitob) asarida arabcha antroponimlar dominantlik qildi.


"And then there were none" romanida eng kam miqdordagi antroponimlar uelchas, slavyancha, kornishcha va gal tillaridan kirib kelgan. "Shaytanat"da esa yahudiycha antroponimlar eng kam miqdorni tashkil qildi. Bundan kelib chiqadiki, o'zbek tilida arabcha ismlar islom dini ta'siri ostida dominantlik qildi. "And then there were none" romanidagi antroponimlarning esa lug'aviy qatlami o'nlab tillarga borib taqalishini aniqladik.

1-jadval

A.Kristining "And then there were none" romanidagi antroponimlarning lugʻaviy qatlami tahlili



T.Malikning "Shaynanat" (1-kitob) romanidagi antroponimlarning lugʻaviy qatlami tahlili



2-jadvalda esa “Shaytanat” va “And then there were none” romanlarida uchragan antroponimlarning mazmunini anglatuvchi motivlarni tahlil qildik. 2-jadvaldan koʻrishimiz mumkinki, “And then there were none” romanida, ayniqsa, familiyalarda joy nomini anglatuvchi motivlar, “Shaytanat” (1-kitob) romanida esa kishining ijodiy va ijobiy hislatlarini anglatuvchi motivlar ustunlik qildi.


Shunday qilib, A.Kristining “And then there were none” asaridagi antroponimlarning koʻpchiligi yahudiy, lotin, uelscha, shotland, yunon, ingliz qatlamiga oid nomlardir. Adiba ijodida ismlar qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi, millatini koʻrsatish uchun yuqoridagi lugʻaviy qatlamlarga mansub boʻlgan nomlar sifatida qoʻllanilgan.

Agata Kristining asarida qoʻllanilgan antroponimlar mazmunini koʻrsatuvchi motivlarda esa shaxsning ijtimoiy holati va tashqi koʻrinishini (1), kasblar (2), joy nomlarini (3), eʼtiqod va ishonchini (4) hamda hayvonlar va oʻsimliklar nomlarini (5), qarindoshchilik munosabatlarini anglatib kelgan.

Oʻtkir qalam sohibi Tohir Malikning “Shaytanat” asarida qoʻllangan antroponimlar mazmunini koʻrsatuvchi motivlar shaxsning ijtimoiy holatini (1), ijobiy va ijodiy hislatlarini (2), farzad tilash orzusini (3), eʼtiqod va ishonchini (4) hamda hayvon nomlarini (5) ifodalab kelgan va ular oʻzbekcha, fors-tojikcha, arabcha va oz miqdorda yahudiycha qatlamga oiddir. Bu xalqimizning tarixi, taraqqiyoti bilan bogʻliq. Bu nomlar badiiy asarda maʼlum stilistik vazifani bajarib, yozuvchi maqsadini ifodalashda yordam beradi.

“And then there were none” romanida eng kam miqdordagi antroponimlar mazmunini turli jismlar va oʻsimliklarni anglatdi. “Shaytanat” romanidagi antroponimlarda kishilar oʻrtasidagi munosabatni bildiruvchi va samoviy jismlarni anglatuvchi motivlar eng kam miqdorni tashkil qildi. Ammo, ikkala noqardosh tilda ham din bilan bogʻliq motivlar bir xil koʻrsatkichni tashkil qildi.

2-jadval



XULOSA. Antroponimik shakllarga ism, laqab, taxallus, familiya va otasmlar(otchestvo), kunyalarni kiritish mumkin. Shaxsiy nomlash tizimi yoki antroponimik tizim - maʼlum bir jamiyatda shaxsiy ism tanlashni tavsiflovchi tizim. Shaxs ismlari ism, familiya va otasining ismi kabi bir yoki bir nechta qismlardan iborat boʻlishi mumkin. A.Kristi “And then there were none” asaridagi

antroponimlarning ko‘pchiligi yahudiy, lotin, uelscha, shotland, yunon, ingliz qatlamiga oid nomlardir. Adiba asarida qo‘llanilgan antroponimlar mazmunini ko‘rsatuvchi motivlarda esa shaxsning ijtimoiy holati va tashqi ko‘rinishini (1), kasblar (2), joy nomlarini (3), e‘tiqod va ishonchini (4) hamda hayvonlar va o‘simliklar nomlarini (5), qarindoshchilik munosabatlarini anglatib kelgan. O‘tkir qalam sohibi Tohir Malikning “Shaytanat” asarida qo‘llangan antroponimlar mazmunini ko‘rsatuvchi motivlar shaxsning ijtimoiy holatini (1), ijobiy va ijodiy hislatlarini (2), farzad tilash orzusini (3), e‘tiqod va ishonchini (4) hamda hayvon nomlarini (5) ifodalab kelgan va ular o‘zbek, fors-tojikcha, arabiy va oz miqdorda yahudiycha qatlamga oiddir. Ikkala noqardosh tildagi badiiy asarlar tahlilida din bilan bog‘liq motivlar bir xil ko‘rsatkichni tashkil qildi. Ikkala asarda qo‘llangan antroponimlar xalqlarning tarixi, taraqqiyoti bilan bog‘liq. Bu nomlar badiiy asarda ma‘lum stilistik vazifani bajarib, yozuvchi maqsadini ifodalashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Askarovna, M.M. (2025). Modern methods of studying anthroponyms in linguistics and their significance. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 38, 83-87.
2. Begmatov, E.A. (2007). *O‘zbek ismlari ma‘nosi: Izohli lug‘at*. Toshkent: O‘zME. p. 608.
3. Begmatov, E.A. (2013). *O‘zbek tili antroponimikasi*. Toshkent: “Fan”. p. 7.
4. Chichagov, V.K. (2002). *Antroponimika*. Moscow: Nauka. p. 241.
5. Christie, A. (1939). *And then there were none*. United Kingdom: Collins Crime Club. p. 272.
6. Malik, T. (2006). *Shaytanat* (Vol. 1). Toshkent: O‘zME. p. 417.
7. Mustafoeva, M.A. (2022). Ingliz tilidagi antroponimlarning rivojlanishining tarixiy taraqqiyot davri va leksik qatlami. *Namangan Davlat Universiteti Ilmiy Axborotnomasi*, 12, 2181-0427.
8. Mustafoeva, M.A. (2022). The lexical layers of Uzbek anthroponyms. *Fars International Journal of Education, Social Sciences and Humanities*, 10(12).
9. Mustafoeva, M.A. (2024). The importance of nouns in linguistics for learning language. *European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE)*, 4(9).
10. Mustafoeva, M.A. (2024). The significance of proper and common nouns in linguistics. *European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE)*, 4(10).
11. Mustafoyeva, M.A. (2024). Anthroponyms in English and Uzbek languages and their linguocultural classification. *Bulletin News in New Science Society International Scientific Journal*, 1(6), 146-150.
12. Mustafoyeva, M.A. (2024). The study and importance of anthroponyms in linguistics. *Bulletin News in New Science Society International Scientific Journal*, 1(5), 20-23.
13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2008). 5 jildlik. 1-jild. A. Madvaliyev (Ed.). Toshkent: O‘zME. p. 127.
14. Nameberry. (n.d.). Retrieved from <https://www.nameberry.com>
15. Nameberry. (n.d.). Retrieved from <https://www.nameberry.com>